sirini san'at va adabiyotdan tortib siyosat va iqtisodiy yo'llargacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarda ko'rish mumkin va uning merosi hayotimizga son-sanoqsiz ta'sir qilishda davom etmoqda. Uyg'onish davri Yevropa tarixidagi o'zgarishlar davri bo'lib, u jamiyat hayotining turli jabhalariga, jumladan, san'at, adabiyot, falsafa, fan, siyosat, savdo va ijtimoiy tashkilotga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Uyg'onish davri buyuk madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar davri bilan ifodalanadi, klassik o'rganishga, individualizmga va zamonaviy milliy davlatning yuksalishiga yangi qiziqish bilan tavsiflanadi. Olimlar Uyg'onish davrining ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini, jumladan, uning ijtimoiy sinflarga ta'siri, gender rollari, o'zini namoyon qilish va o'ziga xoslikning yangi shakllarining paydo bo'lishini o'rganib chiqdilar. Umuman olganda, Uyg'onish davri Yevropa tarixida zamonaviy davrga asos solgan hal qiluvchi davr bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

(1). Black, R. Humanism and education in medieval and Renaissance Italy: Tradition and innovation in Latin schools from the twelfth to the fifteenth century. Cambridge University Press, 2000, p. 8.

(2). Burckhardt, J. The civilization of the Renaissance in Italy. Penguin Classics, 1990, p. 195.

(3). Margaret, L. King. The Renaissance in Europe. London, Laurence King Publishing, 2003, p. 368.

(4). Greenblatt, S. Renaissance self-fashioning: From More to Shakespeare. Chicago, University of Chicago Press, 2005, p. 332.

(5). Johnson P. The Renaissance: A Short History. New York, Modern Library, 2000, p. 208.

(6). Hale J.R. England and the Italian Renaissance: The growth of interest in its history and art. Routledge. Blackwell publishing, 2016, p. 8–22.

Iminov Begzod Begijonovich (Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); iminovbegzod7@gmail.com)

MILLIY-MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATI

Annotatsiya*. Ushbu maqolada milliy-madaniy markazlarning maqsad-vazifalari haqida so'z boradi va O'zbekeston hududida faoliyat yuritib kelayotgan bir nechta milliy-madaniy markazlar haqida ma'lumotlar beriladi. Yangi taraqqiyot bosqichida milliy madaniyat markazlarining faoliyati falsafiy tahlil qilingan. Bugungi siyosiy mojarolar davrida har bir millat o'z milliy qadriyatlarini saqlab qolish muhumligi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *xalqparvarlik, millatlararo totuvlik, milliy madaniyat, baynalmilal madaniyat markazi, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik, hamdo'stlik, urf-odatlar, an'analar.*

Иминов Бегзод Бегижанович (доктор философии по философским наукам (PhD), доцент, Ферганский государственный университет; iminovbegzod7@gmail.com)

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬНЫХ ЦЕНТРОВ

Аннотация. *В данной статье рассказывается о целях и задачах национальных культурных центров и приводится информация о нескольких национальных культурных центрах, действующих на территории Узбекистана. Проведен философский анализ деятельности национальных культурных центров на новом этапе развития. Показана важность сохранения каждой нацией своих национальных ценностей в современный период политических конфликтов.*

Ключевые слова: *благотворительность, межнациональное согласие, национальная культура, Международный культурный центр, религиозная толерантностьт, социальное сотрудничество, содружество, обычаи, традиции.*

Iminov Begzod Begijonovich (Fergana State University, Associate Professor; iminovbegzod7@gmail.com)

GOALS AND OBJECTIVES OF THE ACTIVITES OF NATIONAL CULTURAL CENTRES

Annotation. *This article talks about the purpose and tasks of national cultural centers and provides information about several national cultural centers operating in the territory of Uzbekistan. The activities of national cultural centers have been philosophically analyzed in the stage of new development. In the current era of political conflicts, it is emphasized that it is crucial for every nation to preserve its national values.*

Keywords: *philanthropy, interethnic harmony, national culture, International Cultural Center, religious tolerance, social cooperation, commonwealth, customs, traditions.*

Kirish (Introduction). Milliy-madaniy markazlar o'z faoliyatida o'sib kelayotgan yosh avlod ongida o'z taqdirini vatan taqdiri bilan bog'lab, mamlakatimizda ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va bag'rikenglik muhitini ta'minlashga mas'ul ertangi kunga ishonadigan yetuk avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy-madaniy markazlar xalqimizning boy falsafiy merosini asrab-

avaylash bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishi, ularni yuksaltirishi, kelajak avlodga bezavol yetkazishi lozim. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududi qadimdan turli millat va elatlar uchun muqaddas vatan bo'lib kelgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida Markaziy Osiyo mintaqalarida yashovchi barcha xalqlar jasorat bilan o'tdi. Sharafli va sinovli yo'llarni bosib o'tib, keyingi avlodlarga qoldirgan xalqparvarlik, bag'rikenglik kabi an'ana va qadriyatlarni o'zining eng yaxshi fazilatlari qatorida yuksak qadrlaydi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Milliy-madaniy markazlar faoliyatiga munosabat va millatlararo totuvlikka solinadigan tahdid va xavf-xatarlarni bartaraf etishning ijtimoiy-ma'naviy jihatlarining falsafiy tahlil va talqinlari Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy merosida oshib berilgan. Millatlararo totuvlikni ta'minlashda innovatsion yondashuv milliy g'oya kontekstida Q.Nazarov, I. Soifnazarov, A.Oshildiyev, O'.Abilov, M.Qirgizboyev, A.Abdunabiyev, D.Alimova, M.Ortiqov, I.Ergashev, S.Otamurodov, M.Quronov, B.To'rayev, J.Ramatov, A.Erkayev, A.Muminov, B.Aliyev, N.Nazarov, N.Hakimov, M.Mamatov, M.Qahhorva va A.Mirzaahmedovlarning ilmiy tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar barcha sohalarni qamrab oldi. Eng asosiysi, mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini, sha'nini, qadr-qimmatini, manfaatlarini, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Tahlil va natijalar. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi. Milliy-madaniy markazlar O'zbekistonda istiqomat qiluvchi muayyan millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilot hisoblanadi. Datlabki milliy-madaniy markazlar 1989-yilda respublikamiz viloyatlarida koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar millatlariga mansub millatlar tomonidan tashkil etilgan [1;29-b.]. Yurtimiz mustaqilikka erishgach, milliy madaniyat markazlari soni yildan yilga ko'payib, faoliyatining samaradorligi va sifati ortib bormoqda. 1992-yilda 10 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995-yilga kelib esa ularning soni 72 taga, 2003-yilda 135 taga, 2017-yilda 137 taga, 2020-yilda 143 taga, 2021-yilda 147 taga, 2024-yilda 156 taga yetdi [2;53-b.].

Bunday natijalarga erishishning asosi milliy siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi huquqiy asoslarni yaratishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat milliy siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilab berilgan. Hozirgi kunda respublikamizda 156 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 14 tasi Respublika milliy-madaniy markazlaridir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlarda boshqa millat vakillarining milliy madaniyat markazlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Faol milliy madaniy markazlar soni bo'yicha Toshkent viloyati birinchi o'rinda turadi. 2024-yil holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida 29 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Toshkent shahrida 23 ta, Buxoro viloyatida 12 ta, Samarqand viloyatida 11 ta, Navoiy viloyatida 10 ta, Farg'ona viloyatida 9 ta, Surxondaryo viloyatida 8 ta, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida 6 tadan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon va u yerda 6 tadan Sirdaryo viloyatining har birida 5 tadan, Xorazm va Namangan viloyatlarining har birida 4 tadan milliy-madaniy markazlar mavjud. 2017-yil 24-yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgaligining 25 yilligi munosabati bilan katta bayram tadbiri o'tkazildi. Unda Prezident Sh.Mirziyoyev nutq so'zlab, "Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qati'y nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkonyatlar yaratilgan", deb ta'kidlagan [3;54-b.].

Shu o'rinda yurtimizda faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlardan ayrimlari haqida qisqacha ma'lumot bersak. Turklarning O'zbekistonga ommaviy tarzda ko'chirilishi 1944-yilda ro'y bergan. Mamlakatimizdagi birinchi Turk milliy-madaniy markazi 1991-yili Buxoro viloyatida, O'zbekiston «Axisxa» Turk milliy-madaniy markazi esa 1997-yilda Toshkent shahrida tashkil qilingan. Bugungi kunda uning tuzilmasiga Buxoro, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi bo'linmalar kiradi. Turk xalqining milliy

an'analari, urf-odatlari, madaniyatini rivojlantirish maqsadida markaz qoshida «Sevinch», «Anadoces», «Axisxa», «Arzu» kabi badiiy havaskorlik jamoalari, qo'g'irchoq teatri, «Miko» komediya teatri, «Nazim-media» va «Gunesh» xalq cholg'u asboblari ansambllari tashkil etilgan. Ular «O'zbekiston – umumiy uyimiz» festivalining bir necha bor g'olibi bo'lgan. «Miko» teatrining aktyorlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham shuhrat qozongan. O'zbekistonlik turklar sahnalashtirgan doul do'mbirasi, soz va surnay jo'rligida ijro etiladigan «Tello», «Kaklik», «Lazgi» kabi xalq raqslari Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Ukraina, Ozarbayjon, AQSH kabi mamlakatlarda va Turkiyada tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo'lgan. O'zbekistondagi turk diasporasining alohida faxri – markaz faollarining tashabbusi bilan ona tilida suratga olingan badiiy filmlar bo'lib, ular tomoshabinlarni o'zbekistonlik turklarning hayoti va turmush tarzi bilan tanishtiradi. «Qismat», «Chin muhabbat», «Begona bahor», «Qizg'aldoq» badiiy filmlari va «Jiyda guli» teleserialida bosh rollarni markaz faollari ijro etishgan [4;54-b.].

Arman milliy-madaniy markazi o'zbek va arman madaniyati hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga qaratilgan birinchi arman madaniy markazi 1989-yilda tashkil etilgan. 2001-yilga kelib Samarqand, Andijon va Toshkentdagi Arman markazlari o'zaro birlashib, O'zbekiston – Arman milliy-madaniy markazi tashkil etilishiga asos bo'lgan. Bu markaz mamlakatimizdagi ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, madaniy-marifiy tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtiroq etib kelmoqda.

"Светлтса Полска" Polsha milliy-madaniy markazi. Polyaklarning O'rta Osiyoda paydo bo'lishi ilk bor XIX asr manbalarida qayd etilgan bo'lib, bu hodisani Vrotslavlik monax Polyakning Vatikan ishlari bo'yicha Sirdaryo vodiysi bo'ylab Orol dengizigacha yetib borgani bilan bog'laydi. XIX asrda Turkistonda shakllanishi boshlagan polyak diasporasi birinchi jahon urushi va jahon tarixidagi boshqa hodisalar natijasida kengaygan. Kelib chiqishi polyak bo'lgan yurtdoshlarimiz va Polsha tarixi, madaniyati, tili bilan qiziquvchi boshqa millat vakillarini 1989-yilda tashkil etilgan "Светлитса Полска" milliy-madaniy markazi birlashtirgan. 1992-yili ushbu markaz respublika maqomiga ega bo'lib, bugungi kunda u Toshkent shahridagi "Зажеве", markazining Buxoro viloyatidagi bo'linmasini, Samarqand viloyatidagi "Полонез" madaniy markazini va poytaxtning "Полский класс" jamiyatini o'z ichiga oladi. Markaz polyak madaniyatini ommalashtirish bilan birga Polshaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi. Markaz "O'zbekiston – Polsha" do'stlik jamiyati bilan birgalikda tarixiy vatanlaridan yiroqda yashkvchi polyaklar uchun Poloniya kuni, Konstitutsiya kuni, Polsha Mustaqilligi kunini, Pasxa va Djoniki bayrami kabi sanalarni nishonlaydi [5;24–25-b.].

"Megobroba" Gruzin milliy-madaniy markazi 1994-yilda Toshkent shahrida o'z faoliyatini boshlagan. "Megobroba" Gruzin milliy-madaniy markazi o'z faoliyati davomida ikki millat o'rtasidagi tenglik va madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda respublikamizda tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ushbu markazda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashining tashkil topganligi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Gruzin madaniyat markazining yorqin vakillari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Edvard Rtveladze va gidrogeolog Tariel Kuchuxidzelar O'zbekistonning "Buyuk xizmatlari uchun" va Gruziyaning "Shon-sharaf" ordenlari bilan taqdirlanib, ular mamlakatimiz tarixi, fan va daniyat sohasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishdi. Bugun markaz gruzin yoshlarini "O'zbekiston yagona uyimiz" vatan ruhida tarbiyalash va boshqa millatlarning urf-odat va milliy qadriyatlarini xurmat qilish tuyg'usini shakllantirib kelmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan «Harakatlar strategiyasi»dagi konseptual g'oyalar mamlakatda istiqomat qilayotgan xalqlar orasida milliy ahillik, totuvlik, birlik va qon-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashda siyosiy-huquqiy dasturilamal bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda sayyohlar oqimini inobatga olib, ko'pmillatli hududlarda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillarining an'ana, urf-odat, qadriyatlarini ko'rsatuvchi etnoturizm obyektlarini barpo etish va qo'shni respublikalar bilan aloqalarning vizasiz tizimini joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Л.Холиков. Ўзбекистонда миллий-маданий марказлар фаолиятининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Тошкент, 2017, 285-бет.

(2). Sh.Sharipov. O'zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirilishi. Toshkent, 2023, 167-bet.

(3). Sh.Sharipov. Milliy-madaniy markazlarning faoliyati tarixi. Toshkent. 2022, 148-bet.

(4). N.Ochilova. Role of national and cultural centers of uzbekistan in public life.

(5). Ш.Элбоева. Роль национальных и культурных центров Узбекистана в общественной жизни. Ташкент, 2020, с. 165.